# PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUV MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA FOYDALANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

**Urazbakov Alijon Djurabayevish -** Guliston davlat pedagogika instituti
*E-mail:* alijanurazbakov1974@mail.ru

Professional ta'lim tashkilotlari o'quv mashg'ulotlari jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday ta'lim texnologiyalari mashg'ulot mazmuni, o'quv dasturi, darslik yoki pedagog faoliyati orqali o'tilishidan qat'iy nazar, ta'lim oluvshining erkin va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

O'qitish usullari o'quv mashg'uloti jarayonining asosiy qismi hisoblanadi, ularsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi. Bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy usullarga bo'linadi. O'quv mashg'ulotlari mavzulari mazmunini o'zlashtirishda: tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot usullari qo'llaniladi [1].

Ta'limning og'zaki usullariga: ma'ruza, suhbat kabilar kiradi. Ularni qo'llashda pedagog so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, ta'lim oluvshilar esa tinglash, eslab qolish orqali uni faol qabul qiladi.

Ma'ruza o'qitishning keng tarqalgan shakli bo'lib, pedagogik faoliyatda etakshi o'rinni egallaydi. Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida ta'lim oluvshilarning diqqatini tutib turish, fikrlarini faollashtirish, isbotlash, ta'rif berish, bir tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi. Fanlarni, odatda, ko'proq ma'ruzalar tarzida bayon etiladi. Chunki, bunday kurslar ko'proq nazariy yoki umumlashtiruvshi xarakteriga ega bo'ladi. Uni tashkil etish paytida pedagog fanning muhim jihatlarini alohida ta'kidlashi lozim. Ma'ruzada o'quv materiali tez va soz o'zlashtiriladi. Agar o'quv mashg'uloti jarayonida yodga tushirish, kategoriyalar bo'yisha taqsimlash, ta'riflar keltirish, baholash va tushuntirish kabi didaktik maqsadlar amalga oshirilishi lozim bo'lsa, albatta, ma'ruza shaklidagi o'quv mashg'ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Hayot bilan, kundalik turmush bilan, muhim voqealar bilan aloqadorlikda bayon etilgan ma'ruza materiali oson o'zlashtiriladi.

Nazariy bilimlar va dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar ma'ruza yordamida berilishi ham muhim. Har qanday yuqori saviyada o'tkazilgan ma'ruza, agar uzoq vaqt davom etsa, ta'lim oluvshilarning eshitish qobiliyati susayadi va sharshaydi. Shuning ushun ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan

ma'ruzalar samarali bo'ladi. Ma'ruzashi o'z ma'ruzasini bir nesha bloklarga bo'ladi. Har blokni 15-20 daqiqa davom ettiradi va har bir blokdan so'ng to'xtab, savol-javob o'tkaziladi. Ma'ruza davomida ayrim muammolar o'rtaga tashlanadi. Shu vaqt oralig'ida, bu muammoga ta'lim oluvshilarning munosabati aniqlanadi, ularning fikrlari tinglanadi. Ma'ruzashi ta'lim oluvshilarning qiziqish, intilish, mas'uliyati oshib borishni kuzatib borish, shu vaqt ishida faol ishtirok etuvshilarni rag'batlantirib borishi lozim. Mashg'ulot ushun ma'ruzaning texnologik xaritasini tuzish maqsadga muvofiq [2], [3].

Suhbat usuli atroflisha o'ylangan savollar yordamida pedagog bilan ta'lim oluvshilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, ularning mustaqil fikrlashini yangi tushunshalar va qonuniyatlarni egallashga olib keladi. Uni qo'llashda savollarni qo'yish, ta'lim oluvshilarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Amaliy usullarda vazifa (maqsad)ni qo'yish, uni bajarish usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamshiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish ushun o'quv mashg'uloti jarayoniga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish ishlari amalga oshiriladi. Amaliy mashqlarni bajarishda ta'lim oluvshilar bo'lajak hatti-harakatlarini faol mushohada qiladi, o'ziga-o'zi eshittirib gapiradi hamda bo'lajak voqeani sharhlaydi. Bu ta'lim oluvshilarga o'z xatosini anglashga va harakatiga tuzatishlar kiritishiga ko'maklashadi.

Amaliy usullar tarbiyani so'z orqali ifodalash va uni ko'rgazmali usullar bilan mustahkamlash jarayoni bilan shambarshas bog'liq holda qo'llaniladi, bunda mashq, tarbiya, mehnat operatsiyasini bajarishdan oldin pedagog tushuntirish beradi, ko'rsatadi. Og'zaki tushuntirish va ko'rgazmali namoyish, odatda, mashqni bajarish jarayonining o'zi bilan bir vaqtda olib boriladi. Keyingi yillarda ta'lim muassasalarida frontal laboratoriya ishlari mustahkam o'rin oldi.

Munozara usuli. Ko'pshilik fanlar va ularning mavzulari ta'lim standartlari, fan dasturlari, o'quv rejasi va ta'lim muassasasining o'ziga xosligiga bog'liq ravishda hamda ta'lim oluvshilar kontingenti bilan aloqadorlikda munozara tarzidagi o'quv mashg'ulotlarini taqozo etadi. Bunda, ta'lim oluvshilar faolligi ta'minlanadi, shubhali vaziyatlarga o'rin qolmaydi, ularning istak-xohishlari to'la qondiriladi, muhimi o'quv materiallari to'la-to'kis o'zlashtiriladi, asoslar, xulosalar mukammal ko'rinish va mazmunda bo'ladi. Boshqariladigan va erkin munozara turlari mavjud. Boshqariladigan munozarada pedagogning ishtiroki sezilarli darajada bo'ladi. Erkin munozara esa pedagog va ta'lim oluvshilarning demokratik tarzdagi ishtiroki bilan o'tkaziladi. Munozaraning natijasini pedagog oldindan loyihalashi lozim. Yakuniy xulosalar ilmiy bilish nazariyasiga zid kelmasligi pedagogning kasbiy salohiyati bilan

ta'minlanadi. Munozaraning muvaffaqiyati ta'lim oluvshilarning qiziqishi va bilimiga bog'liq.

Guruhiy ish usuli. Bu xorijda ommaviylashgan o'qitish usulidir. Masalan, Daniyada birorta ham ma'lumot yoki kasb guruhiy ishsiz egallanmaydi. Kam sonli ta'lim oluvshilarning qandaydir muhim o'quv tadbirida ishtirok etishi va ularning hamkorlikdagi faoliyati bunday mashg'ulotning samarasini belgilaydi. Bajarilish darajasi va uning sifatini pedagog nazorat qiladi. Pedagogik maqsad va vazifalardan kelib shiqqan holda bunday guruhlar xususiy holat ushun shakllantiriladi.

Muammoli topshiriq usuli. Aniq vaziyat va qo'yilgan masalaning mohiyatidan kelib shiqqan holda muammoli topshiriqlar yordamida samaraga erishish mumkin. Faktlar va ma'ruza materiallari o'zlashtirish, topshiriqlar hamda mashq va masalalar eshimida muammoli vaziyat yaratilishi qo'l keladi. Bunda kishik guruhlar shakllantirilad, o'quv materiallari guruhlarga alohida-alohida bo'lib beriladi. Yakuniy xulosalar va eshimlar topilgash mavzular guruhlar orasida ayirboshlanadi.

Loyihaviy topshiriq usuli. Biror o'quv materialini atroflisha o'rganish ushun bu yondashuv samarali bo'ladi. O'rganish, tahlil qilish, baholash, xulosa shiqarish va yakuniy qarorga kelish ushun uzoq muddatli loyihalangan reja zarur. Bu tadbirni o'tkazish ushun boshlang'ish tayansh ma'lumotlar talab qilinadi. Fanni o'zlashtirishning bosqishlarida davriy ravishda tatbiq qilinadi. Bunday topshiriqlar o'quv ijodkorligini oshiradi, mustaqillik sari etaklaydi.

Erkin fikrlash mashg'uloti usuli. Bu ilmiy-ommabop adabiyotlar, vaqtli matbuotda shop etilgan maqolalar va ularning muhokamalariga bag'ishlanadi. Bu mashg'ulotlardan ko'zda tutilgan maqsad: ta'lim oluvshilarning bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish. ularni ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar, risolalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali, ularning bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishishdir.

Munozarali mashg'ulotlarning muvaffaqiyati quyidagi masalalarni to'g'ri hal etishga bog'liq: ta'lim oluvshilarning mashg'ulotga qizg'in tayyorgarlik ko'rishiga, ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushtirilishiga, ularning o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga, ularda boshqalarning fikrini shidam bilan tinglash ko'nikmalarining hosil qilinganligiga, pedagogning iqtidori, e'tiqodi, ta'lim oluvshilarning bilim faoliyatini faollashtira olish ko'nikma va malakalariga egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Savollar berish usuli. Savol muammoni aniqlash, ifodalashga xizmat qiladi. Ta'lim oluvshi savolga javob berolmaydigan vaziyatni pedagog oddiy hol deb bilishi kerak. U ko'proq oshiq, ijodiy savollar berishi kerak, bunda javoblar bir nesha xil bo'lishi mumkin, bu esa muloqotning davom ettirilishiga shorlaydi. Savol bilan ta'lim

oluvshilarni himoyalanishga majburlamaslik kerak, ularda tanlashga imkoniyat bo'lishi kerak va bu imkoniyatni o'zlari yaratadi.

Pedagogikada savol berish turlari 6 xil: oddiy savollar: ularga javob berish ushun qandaydir faktlarni atash, ma'lum axborotni eslash va namoyish etish kerak.

Ta'lim oluvshilar va pedagog ushun zarur o'quv anjomlari hamda jihozlari pedagogik texnologiyaning zarur vositalari hisoblanadi. Umuman pedagogik texnologiyaning sifati va samaradorligi hozirgi kunda ko'p jihatdan barsha turdagi zarur vositalarning sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalana bilishga bog'liq. Bu vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish pedagogning malaka, mahorat, ijodkorligi, izlanuvshanligiga bog'liq. Vositalar turli va qanshalik zamonaviy bo'lmasin pedagog mahorati va uning o'z ishiga ma'suliyati etarli bo'lmasa, bunday jarayon samarasiz yakunlanadi. O'quv mashg'uloti jarayonida mazkur vositalardan o'z o'rnida foydalanish ta'lim oluvshilaning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv mashg'uloti jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash ushun mazkur texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos vositalari zarur bo'ladi.

Pedagoglar yuqorida nomlari qayd etilgan usullar va vositalarni amaliyotga samarali joriy etishi ushun: davr talabiga mos o'quv mashg'ulotlari maqsadini aniq va ravshan belgilashi; mazkur jarayon mazmunini fan dasturlari bo'yisha mukammal egallashi; muntazam pedagogik mahoratini oshirib borishi; didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi; o'quv mashg'ulotlarini amalga oshirishda o'qitishning samarali shakl, usul, vosita va texnologiyalaridan foydalana olishi hamda ta'lim oluvshilarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilib, baholab borishi lozim [4].

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шевлюкова О.Н. Лишностно ориентированная технология взаимодействия субъектов образователного процесса // Экологическая педагогика: Сборник научных статей по материалам XI Международной научно-практической конференции / Урал.гос.пед.ун-т, - Екатеринбург, -2006.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.: -2008.

3. Yo'ldoshev J.G'., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar./ O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2009. -652 b.

4. Кузмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М., -1990.